HUDUDIY RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-GEOGRAFIK MASALALARI

[a]Mirzatillayev J.Z.
[a]Farg‘ona davlat universiteti muataqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mehnat bozori, ishsizlik turlari, inson kapitali va zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellektning bandlikka ta’siri kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, gender tengsizligi sababli ayollarning iqtisodiy faolligi pastligi va uni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosati, xususan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Maqolada ishsizlikning friktsion, strukturaviy, mavsumiy va boshqa turlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Inson kapitalining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, ta’lim va raqamli texnologiyalarning bandlikka ta’siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari zamonaviy mehnat bozorini rivojlantirishda inson kapitalini oshirish va raqamli transformatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Mehnat bozori, ishsizlik, inson kapitali, gender tenglik, ayollar bandligi, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, bandlik siyosati, O‘zbekiston, iqtisodiy o‘sish, strukturaviy ishsizlik, ta’lim, Inson taraqqiyoti indeksi.*

KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda mehnat bozori murakkab va tez o‘zgaruvchan tizim sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish va sun’iy intellektning keng joriy etilishi mehnat resurslariga bo‘lgan talab va ularning tarkibini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham, ishsizlik va bandlik muammolari dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Maqolada mehnat bozorining asosiy muammolari – ishsizlik turlari, inson kapitalining iqtisodiy ahamiyati hamda ayollar bandligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosati va strategik hujjatlar asosida bandlikni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mehnat bozori, inson kapitali, ishsizlik va sun’iy intellektning bandlikka ta’siri o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini klassik va zamonaviy iqtisodiy maktablar vakillari - A. Smit, D. Rikardo, J. M. Keyns, G. Bekker, T. Shuls, P. Druker hamda endogen o‘sish nazariyasi vakillari (P. Romer, R. Lukas)ning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar mehnat bozori va inson kapitali haqidagi konseptual tushunchalarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida Tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlarda mehnat bozori, ta’lim tizimi, davlat siyosati, bandlik va inson kapitali rivojlanishidagi farqlar tahlil etildi.

Natija va muhokama. Ko‘pchilik jamiyatlarda ayniqsa, Osiyoning qator mamlakatlarida ayollarning iqtisodiy faolligi pastligi kuzatiladi. Bunga sabab sifatida avvolo diniy qarashlar sabab bo‘lsa, keying navbatda jamiyatda gender tengsizligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayollar iqtisodiy faolligining nisbatan past bo‘lishi qator ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligi tavsiflanadi. Bunda an’anaviy oilalada ayolning roli, bolalar parvarishi bilan band bo‘lishi, ish vaqtining moslashuvchanligi yetarli emasligi, mehnat haqi farqlari hamda ayollar mehnati samaradorlisi sifatida qaraladi. Bu muammoni hal etish uchun davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko‘p rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ham ayollarga bo‘lgan e’tibor - ularning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlashning davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilayotganida namoyon bo‘lmoqda. 2019-yil 23-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari” to‘g‘risida Qonuni qabul qilingan [1]. Ushbu Qonunga asosan ayollarning jins bo‘yicha bilvosita kamsitilishi taqiqlanib, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan ijobiy choralar qat’iy belgilangan. Natijada, keying yillarda ayollarning bandligi nisbatan o‘sib bormoqda.

Ishsizlik - bu mehnatga yaroqli, mehnat qilishni istovchi va ish izlayotgan, ammo ish topa olmayotgan shaxslarning iqtisodiyot tizimidagi mavjudligini ifodalovchi tushuncha hisobladi. Ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy taranglik, daromadlar tengsizligi va siyosiy beqarorlik manbai ham bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada ishsizlikning bir necha turlari ajratiladi: frikton, struktura, sikl, mavsumiy, yashirin va boshqalar. Har bir turning o‘ziga xos sabablari va hal etish yo‘llari mavjud [2].

Friksion ishsizlik ko‘pincha ish joyini o‘zgartirish, yangi malaka yoki hududiy moslashuv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, odatda qisqa muddatli xarakter kasb etadi. Ushbu jarayonda ishchi kuchining bir qismi vaqtincha mehnatda band bo‘lishni, bandlikni izlab, norasmiy sektorga kirib ketadi. Masalan, yangi ish topguncha vaqtinchalik xizmat ko‘rsatish yoki savdo bilan shug‘ullanish holatlari kuzatiladi. Bu jarayon yashirin iqtisodiyot hajmini oshirsa-da, uzoq muddatli bo‘lmaydi. Strukturaviy (tuzulmali) ishsizlik iqtisodiyotdagi texnologik yangilanishlar, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi qilinishi yoki tarmoqlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar oqibatida shakllanadi. Xususan, hozirgi sanoat iqtisodiyoti yoki xizmatlar sohasiga sun’iy intellektning kirib kelishi bilan ham strukturaviy ishsizliklar shakllanmoqda. Malakasi eskirgan yoki mavjud talabga mos kelmagan xodimlar rasmiy ish joylariga joslashishda muammolarga va qiyinchiliklarga uchrashi, ularning norasmiy sektorda band bo‘lishga majbur bo‘ladilar. Bu holat, ayniqsa, sanoatni avtomatlashtirish, raqamlashtirish yoki yangi texnologiyalar joriy etilgan davrlarda shakllanishi kuzatiladi. Strukturaviy ishsizlikning davomiyligi yashirin iqtisodiyot hajmining barqaror ravishda kengayishiga olib kelishi ham mumkin [10].

Bundan tashqari iqtisodiyotda va demografiyada siklli ishsizlik (mavsumiy), yashirin ishsizlik, texnologik ishsizlik kabi turlari ham ajratiladi. Mavsumiy ishsizlik (siklli) - qishloq xo‘jaligi, qurilish, turizm kabi mavsumiy tarmoqlarga xos hisoblanib, O‘zbekiston sharoitida qishloq joylarda qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini yig‘im davridan keyin asosan qish oylarigacha bo‘lgan davrda yuzaga keladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, qishloq ho‘jalik maydonlarini ekinga tayyorlash, ularni parvarishlash, mahsulotlarini yeg‘ib olish jarayonlarida yuzaga keladigan bandlikni ko‘p xollarda norasmiy mehnat bozorlari sifatida yoki mahalliy tushuncha bilan aytganda “mardikor bozorlari” shaklida ham ishlatiladi [3,4].

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida moddiy resurslar va tabiiy boyliklarning roli sezilarli darajada pasayib, inson omili birinchi o‘ringa chiqmoqda. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, eng yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga tabiiy qazilmalari ko‘p bo‘lgan davlatlar emas, balki inson kapitaliga eng ko‘p investitsiya kiritgan mamlakatlar erishmoqda. Inson kapitali bu shunchaki mehnat resursi emas, balki iqtisodiyotning sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlaydigan intellektual energiya manbaidir. Iqtisodiyot tarixida uzoq vaqt davomida boylik to‘plashning asosiy omili sifatida yer, mehnat va ishchi kuchi qaralgan. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, T.Shuls, G.Bekker kabi iqtisodchilar tomonidan “inson kapitali” nazariyasi ilgari surildi. Inson kapitali bu insonning bilimi, amaliy ko‘nikmalari, ijodiy qobiliyatlari va sog‘lig‘ining yig‘indisi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida qo‘shimcha qiymat yaratishning asosiy drayveri hisoblanmoqda. Bugungi kunda mamlakatning boyligi uning tabiiy resurslari bilan emas, balki o‘sha mamlakatda yashayotgan insonlarning intellektual salohiyati va ulardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanmoqda [5, 9].

Inson kapitali nazariyasi mehnat resurslari sifatini o'lchashda yangi metodologiya yaratdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson taraqqiyoti indeksi (Human Development Index-HDI) bu yondashuvning amaliyotdagi ifodasidir. HDI uch komponentdan iborat bular uzoq va sog'lom hayot (umr ko'rish davomiyligi), bilimlilik (ma'lumot olish davomiyligi) va munosib turmush darajasi (kishi boshiga to'g'ri keladigan YaIM). 2022-yil hisobotiga ko'ra, O'zbekiston bu indeks bo'yicha 191 davlat orasida 106-o'rinda joylashib, "o'rta inson taraqqiyoti" guruhiga kiradi (UNDP, 2023). Bu o'rinni 2030-yilga qadar 70-o'ringa ko'tarish maqsadi belgilangan[8].

Zamonaviy bilim iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalining roli misli ko'rilmagan darajada oshib bormoqda. P.Drukker o'zining "Bilim ishchisi" konsepsiyasida ta'kidlaganidek, XXI asrda iqtisodiy raqobat asosan jismoniy ishlab chiqarish quvvatlari emas, balki inson kapitalining sifati uchun olib boriladi (Drucker, 1999) [6]. Sun'iy intellekt, raqamlashuv, robototexnika kabi yangi texnologiyalarning rivojlanishi past malakali ishchilar uchun ish o'rinlari sonini qisqartirsa, yuqori malakali mutaxassislarga (data analitikari, sun'iy intellekt mutaxassislari, kiberhavfsizlik mutaxassislari) bo'lgan talabni keskin oshirmoqda.

Boshqa tomondan, sun’iy intellekt tarafdorlari avtomatlashtirish yangi ish o'rinlari yaratilishiga,iqtisodiy o'sishga va ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hissiy intellekt

va muammolarni hal qilish kabi insoniy ko‘nikmalarni talab qiladigan yangi sanoat va kasblarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Sun’iy intellekt ma’lum ishlarni yo‘q qilishi mumkin bo’lsa-da, u texnologiyani rivojlantirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, kiberxavfsizlik va boshqa talab yuqori bo‘lgan sohalarda ishga joylashish uchun yangi imkoniyatlar yaratish imkoniyatiga ega. Inson imkoniyatlarini oshirish va samaradorlikni oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali tashkilotlar yangi qiymat manbalari va raqobatdosh ustunliklarni ochishlari mumkin. Sun’iy intellektning aholi bandligiga ta’siri sanoat va mintaqalarda bir xil emas, ba’zi tarmoqlarda sezilarli uzilishlar kuzatilmoqda, boshqalariesa ish o‘rinlarining o‘sishi va diversifikatsiyasini kuzatmoqda.

Sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanishni tartibga soluvchi, ishchilarning huquqlarini himoya qiluvchi hamda ta’lim va ta’limdan teng foydalanishni targ‘ib qiluvchi siyosat va qoidalar sun’iy intellektning ishga joylashishdagi salbiy oqibatlarini yumshatish uchun muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellektning aholi bandligiga ta’siriga ta’sir qiluvchi yana bir omil - bu shaxslar, tashkilotlar va hukumatlarning o‘zgaruvchan texnologik landshaftga moslashishga va raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo'lishga tayyorligidir. Sun’iy intellekt ishning tabiatini va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko‘nikmalarni qayta shakllantirar ekan, ishchilarni kelajakdagi ish joylariga tayyorlaydigan va uzluksiz o‘rganish va moslashish madaniyatini rivojlantiruvchi qayta malaka oshirish,malaka oshirish va umrbod ta’lim tashabbuslariga sarmoya kiritish dolzarbligi ortib bormoqda. Sun’iy intellektning aholi bandligiga ta’siri ko‘p qirrali va dinamik hodisa bo‘lib, u jismoniy shaxslar, korxonalar va umuman jamiyat uchun imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Sun’iy intellekt samaradorlik, innovatsiyalar va iqtisodiy o‘sishni oshirish potentsialiga ega bo‘lsa-da, u ish joyini almashtirish, malakalarning mos kelmasligi va ijtimoiy tengsizlik xavfini ham keltirib chiqaradi[7].

O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta’lim, sog‘liqni saqlash va ilm-fanga investitsiyalarni keskin ko‘paytirish, oliy ta'lim qamrovini 50 foizga yetkazish, IT-sohani rivojlantirish, dual ta'lim tizimini joriy etish kabi vazifalar qo'yilgan. Maktab ta'limi sifatini oshirish, kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish, raqamli ko'nikmalarni ommalashtirish bu yo'nalishdagi asosiy chora-tadbirlardir. IT Park va Presidential Schools tashabbuslari yangi avlodning yuqori sifatli inson kapitalini shakllantirishga xizmat qilmoqda [12].

Mehnat resurslari va ularni takomillashtirish borasida jahon va o’zbek iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va ularning ilmiy ishlari asosida bir qancha asarlar yozilgan. Xususan iqtisodchi olimlardan U.Petti, F.Kenne, A.Smit, D.Rikardo, A.Marshal, J.M.Keyns va boshqa qator olimlar ilmiy ishlar olib borishgan va mehnat resurslari o‘z davri va zamonasidan kelib chiqib ta’riflar berishgan. Mehnat resurslari bo‘yicha mamlakatimiz tadqiqotchilari ham ko‘plab ilmiy asarlar yaratgan.

Xususan, M.Bo‘riyeva, Z.Tojiyeva, R.Qodirov, Z.Temirov, Q.X.Abdurahmonov, Z.M.Akromov, S.Q.Ziyodullayev, A.S.Soliyev, T.Q.Toychiyev, P.G'ulomov, M.B.Asomov kabi olimlarni alohida ta'kidlash mumkin. Akademik Z.M.Akromov O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari joylashuvining hududiy xususiyatlarini o'rgangan. A.S.Soliyev iqtisodiy geografik tadqiqotlar metodologiyasi va hududiy mehnat bozorining shakllanishi muammolarini tahlil qilgan. T.Q.Toychiyev demografik jarayonlar va mehnat resurslarining hududiy taqsimoti masalalarini o'rgangan.

Zamonaviy O'zbekiston olimlari orasida M.Mahmudov, N.Tursunova, F.Karimova, B.Avezov, D.Jonbekova, Sh.Murtazayev kabi tadqiqotchilarning ishlari mehnat resurslari va bandlikning xilma-xil aspektlarini yoritadi. M.Mahmudov mehnat bozorining modernizatsiyasi va bandlikning yangi shakllarini o'rgangan. N.Tursunova xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi va gender tengligi masalalarini tahlil qilgan. F.Karimova qishloq joylarida bandlik muammolarini tadqiq etgan. Bu olimlarning ilmiy ishlari O'zbekiston mehnat resurslari va bandligi muammolarini fundamental va amaliy darajada o'rganishga muhim hissa qo'shadi.

Quyidagi jadvalda mehnat resurslari va bandlik bo'yicha asosiy ilmiy yondashuvlar qisqacha umumlashtirilgan (1-jadval). Mehnat resurslari va bandlik bo'yicha asosiy ilmiy nazariyalar.

1-jadval

Mehnat resurslari va bandlikning asosiy g‘oya va nazariyari

Nazariya	Asosiy mualiflar	Davri	Asosiy g‘oyalar
Klassik maktab	A.Smit, D.Rikardo, J.S.Mill	XVIII–XIX asr	Mehnat boylik manbai; mehnat bo‘linishi
Marksizm	K.Marks, F.Engels	XIX asr o'rtasi	Mehnat kuchi tovar sifatida; qo‘shimcha qiymat
Neoklassik maktab	A.Marshall, A.Pigu	XIX asr oxiri	Marjinal unumdorlik; bozor muvozanati
Keynsianlik	J.M.Keyns, J.Hicks	XX asr o'rtasi	Samarali talab; davlat aralashuvi
Monetarizm	M.Fridman, A.Schwartz	1960–1980	Tabiiy ishsizlik darajasi; Phillips egri chizig‘i
Inson kapitali	T.Shults, G.Bekker	1960-yillardan	Ta'lim - investitsiya; sifat omili

Endogen o'sish	P.Romer, R.Lucas	1980–1990	Bilim – o‘sish manbai
Yangi institutsionalizm	O.Williamson, D.North	1990-yillardan	Institutlar; transaksion xarajatlar

Jadval mehnat resurslari bandlikning g‘oya va nazariyalarining shaklanish davlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

“Mehnat iqtisodiyoti” kitobining mualliflari, N.T. Shoyusupova, I.A.Bakievalar mehnat reurslari bo’yicha tadqiqotlar olib borishgan. Mehnat sohasida odamlarning muhim ehtiyojlari amalga oshadi, lekin hamma ehtiyojlari ham ro‘yobga chiqavermaydi. Shuning uchun ham mehnatdan samarali foydalanish uchun insonning shaxs sifatidagi talablarini esda tutish muhimdir. Boshqacha aytganda, iqtisodiyotining muvaffaqqiyatli rivojlanishi shuni taqozo qiladiki, murakkab xo‘jalik mexanizmining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun amalga oshiriladigan hamma sohada inson va iqtisodiyot manfaatllariga rioya qilinishi lozim. Shuning uchun butun dunyoda taxminan shu asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiyotni insonparvarlashtirish degan g‘oya tobora ko‘proq qaror topayotgani bejiz emas. Bu g‘oyaning mohiyati shundan iboratki, mazkur tilga olib o’tilgan omilning o‘zaro ta’sir ko’rsatishda asosiy e‘tibor insonga qaratiladi [11].

XULOSA

Mazkur maqolada zamonaviy mehnat bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalari, ishsizlikning turli shakllari hamda inson kapitalining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozori bugungi kunda faqat an’anaviy iqtisodiy omillar bilan emas, balki texnologik taraqqiyot, xususan sun’iy intellekt va raqamli transformatsiya bilan ham bevosita bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Shuningdek, ishsizlikning friktsion, strukturaviy va mavsumiy turlari mehnat bozoridagi nomutanosibliklarning asosiy sabablari ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, strukturaviy ishsizlik texnologik yangilanishlar natijasida kuchayib, malaka va talab o‘rtasidagi tafovutni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda inson kapitali iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida e’tirof etilib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali mehnat bozori samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berildi. Shuningdek, gender tengligi va ayollar bandligini oshirish masalalari ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida ko‘rib chiqildi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida mehnat bozorini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish uchun inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish, raqamli iqtisodiyotga moslashish hamda inklyuziv bandlik siyosatini kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-sonli Qonuni. https://lex.uz/docs/-4494849

2. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 536 bet.

3. Abduvaliyev X.A., Mirzatillayev J.Z. Farg‘ona viloyati mehnat bozori va uning ayrim jihatlari//Yashil O‘zbekiston: landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash masalalari Farg‘ona shahri, 2025-yil 7-8 noyabr.

4. Mirzatillayev J.Z. O‘zbekistonda aholining mehnatda bandligi va uning ayrim masalalari //Yashil O‘zbekiston: landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash masalalari Farg‘ona shahri, 2025-yil 7-8 noyabr

5. Becker, G. S. Human capital: a theoretical and empirical analysis, with special reference to education / G. S. Becker. – New York: National Bureau of Economic Research, 1964. – 187 p.,

6. Drucker P. F. Management Challenges for the 21st Century. New York: Harper Business, 1999. 224 p.

7. Eshqulova D. Sun’iy intellektning aholini ish bilan bandligigata'siri. //International journal of scientific researchers volume 5, Issue 2, 2024.

8. Human Development Report 2023/2024: Reimagining Cooperation in a Polarized World. Breaking the Gridlock. – New York: United Nations Development Programme (UNDP), 2024. – 324 p.

9. Iskandarov B. Inson kapitali va mehnat unumdorligining iqtisodiy o‘sishdagi roli//Ilm fan xabarnomasi ISSN:3030-3931, Impactfactor: 8,841 Volume 13, issue1, Aprel 2026.1155-1158-betlar

10. Raxmonov B. Ishsizlikning turlari va ularning yashirin iqtisodiyot bilan o‘zaro ta’siri// Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari jurnali. 5-son. 2025-dekabr 86-89-betlar

11. Umirov I., Sharipboyev H. Mehnat resurslariga oid ilmiy-nazariy yondoshuvlarning rivojlanishi//Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. Jild: 03 NASHR:26.04.2024 yil.131-134-betlar]

12. https://www.lex.uz/uz/docs/-6600413